3. Auditoriya faolligini oshiradi: Guruhda va juftlikda ishlash, kartografik va sxematik materiallarni taqdimot qilish hamda jamoaviy diskussiyalar o‘tkazish orqali o’quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shunday qilib, tabiiy geografiya ta’limida grafikli organayzerlarni tizimli joriy etish ta’lim sifatini oshirish hamda bo‘lajak geograf-o‘qituvchilar va gidrometeorolog mutaxassislarning tahliliy salohiyatini yuksaltirishda yuqori pedagogik va ilmiy-amaliy samaradorlikni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Toshkent: TDPU, 2011/2012.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. -Toshkent: Iste’dod, 2008.
3. Olimova A. Geografiyani o‘qitishda kartografik metodni qo‘llashning zamonaviy yondashuvlari va asosiy tamoyillari // O‘zMU Xabarlari. -Toshkent, 2024.
4. Qalandarova M.K. Geografiya o‘qitish metodikasi (Amaliy ishlar). –Toshkent, 2022.
5. Tolipov O‘.Q., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
6. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -Toshkent: Fan, 2006.
7. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. -Toshkent: O‘qituvchi.
8. Мавлонов Ғ.О., Маматқулов М.М. Табиий тўғонлар. -Тошкент: Фан, 1965. -33 б.
9. Пирназаров Р.Т., Ҳикматов Ф.Ҳ. Тўғонли кўлларнинг гидрометеорологик режими ва улар хавфини камайтириш масалалари (Қурбонкўл мисолида). –Т.: “Fan va texnologiya”, 2013. -176 б.
10. Kun.uz.
11. Daryo uz.

“KEYS-STADI” METODINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA TA’LIM TIZIMIDAGI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Pirnazarov Ravshan Topvoldiyevich
Farg‘ona davlat universiteti Geografiya kafedrasi dotsenti,
geografiya fanlari nomzodi
Ermahammatova Mohlaroy Mamarasul qizi
Farg‘ona davlat universiteti Geografiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada interfaol o‘qitish texnologiyalaridan biri bo‘lgan “Keys-stadi” (Case Study) metodining mohiyati, maqsadi va ta’lim jarayonidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqotda metodning rivojlanish tarixi 5 ta asosiy bosqichga bo‘lib tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida metodni pedagogika, iqtisodiyot, huquqshunoslik va tibbiyot sohalarida qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari hamda uni normativ-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Keys-stadi, interfaol metod, Garvard metodi, kompetensiyaviy yondashuv, situatsion tahlil, muammoli vaziyat, ta’lim texnologiyasi, qaror qabul qilish.*

KIRISH

Bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan, axborotlar oqimi kuchaygan globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa – talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki ularni murakkab, noaniq real hayotiy vaziyatlarda tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatishdir. Shu nuqtai nazardan, ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, xususan, Keys-stadi metodini qo‘llashning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Keys-stadi - bu shunchaki interfaol o‘qitish usuli emas, balki nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantiruvchi, ta’lim oluvchiga real voqea-hodisalar asosida tahlil qilish,

munozara yuritish va muqobil yechimlar ishlab chiqish imkonini beruvchi kuchli didaktik vositadir. Shuning uchun Keys-stadi metodining zamonaviy ta’limdagi, xususan geografiya ta’limidagi o‘rni, uning talabalarda kompetensiyalarni rivojlantirishdagi hal qiluvchi roli bugungi kunda nihoyatda yuqori va uni bugungi kundagi o‘quv jarayoniga tadbiq etish dolzarb masalaga aylanib ulgurdi.

Jahon ta’lim tizimida XXI asr talablariga javob beruvchi, talaba-yoshlarning nafaqat bilim olish, balki ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar tobora keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonlari [2] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ta’limda sifat va samaradorlikni oshirishni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishni ustuvor vazifa qilib belgilaydi.

Geografik qobiqda murakkab aloqalarni aks ettiruvchi fundamental tushunchalarni o‘qitishda, an’anaviy metodlar (ma’ruza, hikoya) talabalarda real geografik muammolarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va xulosalar chiqarish kabi muhim kompetensiyalarni yetarli darajada shakllantira olmayapti. Ushbu sharoitda, talabalarni faol bilish faoliyatiga jalb etuvchi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi va amaliyotga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarga ehtiyoj yuqori. “Keys-stadi” metodi bunday talablarga javob beruvchi samarali usullardan biri bo‘lib, u nazariy bilimlarni real hayotiy yoki ilmiy vaziyatlar misolida mustahkamlashga, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, geografiya ta’limida “Keys-stadi” metodini qo‘llashning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini isbotlash bugungi kun pedagogik amaliyoti uchun muhim va dolzarb hisoblanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Keys-stadi metodikasining fundamental nazariyasi va amaliy poydevori asosan xorijiy ta’lim muassasalari va tadqiqotchilarning faoliyati natijasida shakllangan. Metodning ilk joriy etilishi XX asr boshlarida Garvard Biznes Maktabi (HBS) bilan bog‘liq bo‘lib, u talabalarning real biznes muammolari asosida qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan edi. Xorijiy muassasalar orasida HBS Online [22], Kolumbiya universiteti (CTL) [21] va Illinois Urbana-Champaign universiteti (UIUC) kabi markazlar [20] metodning biznes, huquq va tibbiyot kabi ixtisoslashgan sohalarga tatbiqini yoritgan.

Keys-stadi metodining mustaqil ilmiy-tadqiqot metodologiyasi sifatida mustahkamlanishida Robert K.Yin [18] va J.W.Creswell [8] kabi olimlarning xizmati beqiyosdir. Ular Keys-stadi turlarining tahlilini, dizaynini va sifatiy tadqiqotlardagi o‘rnini asoslab, metodning ilmiy ishonchliligini kafolatlaganlar. Shuningdek, Erskine, Leenders va Mauffette-Leenders [9] tomonidan yaratilgan amaliy qo‘llanmalar Keys-stadi darslarini tashkil etish prinsiplarini tizimlashtirgan. H.S.Barrows [7] va Y. & S.Sharan [17] tadqiqotlari esa Keys-stadi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Muammoli ta’lim (PBL) va guruhli o‘rganish nazariyalarini rivojlantirgan. M.A.Kaddouro [12] va K.M.Yusof [19] ishlari

metodning tanqidiy fikrlash va muammo yechish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi universal samaradorligini isbotlagan.

O‘zbekistonlik pedagog olimlarning tadqiqotlari ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy ta’lim tizimiga tatbiq qilish, moslashtirish va metodik jihatdan boyitishda muhim o‘rin tutadi. Xususan, O.U.Abdumurotov (Tabiiy geografiya, “Yevrosiyo materigi”) [5] va B.E.Boymatov (Siyosiy geografiya, “Jahon siyosiy kartasi”) [28] tadqiqotlarida Keys-stadi metodini aniq geografik mavzularni o‘qitishga moslashtirish bo‘yicha amaliy mexanizmlari ishlab chiqilgan, A.A.Hovsepyan [11] esa metodning geografiya ta’limidagi samaradorligini nazariy asoslagan. L.N.Niyazov, H.I.Amonova, M.T.Gulamovalar [14] ning hamkorlikdagi ishlarida keys usuli yordamida oliy ta’limda dars berish bo‘yicha nazariy, amaliy ma’lumot va tavsiyalar tabiiy fanlarni o‘qitish misolida ko‘rib chiqilgan. Ta’limning didaktik asoslarni mustahkamlash borasida D.Mamatqulov va S.G‘.Tolibov [26]larning hamkorlikdagi ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular o‘z tadqiqotlarida metodning talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va muqobil yechim izlashga o‘rgatish kabi asosiy didaktik vazifalarini aniqlagan. L.A.Axmedova [6] metodning umumiy ta’lim jarayonidagi ahamiyatini asoslagan. G.M.Islomova [24] Keys-stadi asosida talabalarning kompetensiyaga asoslangan amaliy baholash usullarini o‘rgangan. A.A.Jalilov va A.N.Rustamov [25] lar esa metodikani talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatiga samarali kiritish bo‘yicha ko‘rsatmalar ishlab chiqqan.

Keys-stadi metodining O‘zbekiston ta’lim tizimiga kiritilishi va uni faol qo‘llash interfaol ta’limga o‘tish siyosati bilan bevosita bog‘liq. Keys-stadi metodining ta’lim jarayoniga joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi qarorlari va farmonlari bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” ta’lim sifatini oshirish va ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy etishni ustuvor vazifa qilib belgilagan [3].

Konsepsiya Oliy ta’limda o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Keys-stadi aynan shu maqsadda qo‘llaniladigan eng muhim interfaol metoddir [3].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ga 391-sonli qarorida [4] ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan, Keys-stadi kabi amaliyotga yo‘naltirilgan metodlarni faol qo‘llash zaruriyati ta’kidlangan.

“Keys-stadi” (Case Study) metodining mohiyati real hayotiy yoki nazariy jihatdan muhim bo‘lgan muammoli vaziyat (keys – *case*) misolida talabalarni tahlil qilish, muammoning ildizlarini aniqlash, optimal yechim variantlarini ishlab chiqish va yakuniy qaror qabul qilishga o‘rgatuvchi interfaol o‘qitish texnologiyasidir [14].

Keys-stadi metodining asosiy maqsadi talabaga tayyor bilim berish emas, balki uni bilimlarni mustaqil egallash, nazariyani amaliyotga bog‘lash hamda kasbiy (geografik) fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Keys-stadi (Case-Study) pedagogika va tadqiqot sohalarida keng qo‘llaniladigan muhim usullardan biridir. Gari Tomas uni “yagona yoki bir nechta usul yordamida shaxslar, voqealar, dasturlar, siyosat, tashkilotlar va boshqa sistemalarni yaxlit tahlil qilish” deb

ta’riflaydi [10]. Mayles va Hubermanlar nuqtai nazaridan, u “cheklangan kontekstdagi biror-bir hodisa” [13] bo‘lib, mazmunan analiz birligini tashkil etadi. Aslida, keys-stadi uzoq vaqt davomida inson, guruh yoki vaziyatni tadqiq qilishga asoslanadi [14].

Bu usul (ingliz tilidan case – hodisa, vaziyat) ta’lim jarayonida o‘quv auditoriyasini real hayotiy yoki sohadagi faoliyatda sodir bo‘lgan vaziyatlarga oid diskussiyaga jalb qilish vositasi sifatida ham qaraladi. Muallif tomonidan taqdim etilgan vaziyatni muhokama qilish orqali talabalarni analiz qilib qaror qabul qilishga undash bu usulning muhim jihatidir. Keys-stadi aktiv muammoli vaziyat analizi orqali aniq masala va vaziyatlarni yechishga asoslangan ta’lim bo‘lib, u noo‘yin imitatsion aktiv usullarga misol bo‘ladi.

Keys so‘zi real vaziyatga ta’rif berish yoki real hayotning bir bo‘lagi sifatida umumlashtiriladi. Keys-stadi usulining bevosita maqsadi talabalar guruhining birgalikdagi harakati bilan keysni analiz qilish orqali amaliy yechim topish va jarayon oxirida taklif etilgan eng yaxshi yechimni tanlab olishdan iborat.

Keys-stadi bo‘yicha turli ilmiy fikrlar mavjud bo‘lib, L.N.Niyazov, H.I.Amonova, M.T.Gulamovalar [14] ning hamkorlikdagi ishlarida ular usulning mohiyatini turli jihatlardan ochib berishi ta’kidlanadi. Ularning fikriga ko‘ra:

-Keys-stadi real iqtisodiy va ijtimoiy hodisalarni tavsiflash uchun qo‘llaniladigan o‘qitish texnikasi bo‘lib, unda o‘qituvchilar muammo mohiyatini aniqlab, yechim yo‘llarini taklif qilishi lozim. U real faktlarga asoslangan dala hodisasi va kreslodagi (o‘ylab topilgan) keyslarga bo‘linadi.

-Keys-stadi - alohida umumiylikni, ya’ni unikal obyektning o‘zaro aloqalarini o‘rganuvchi miqdoriy usuldir. So‘zma-so‘z tarjimasi “hodisani tadqiq qilish”. U sud amaliyotidan kelib chiqqan bo‘lib, obyekt sifatida yopiq umumiylik olinadi va uni boshqa usullar bilan tahlil qilish qiyin bo‘ladi.

-Keys-stadi tadqiqot loyihasi bo‘lib, tadqiqot predmeti sifatida xususiy hodisa yoki ijtimoiy sohadan alohida misollar olinadi. U odatiy, illyustrativ yoki deviant misollarni o‘z ichiga oladi, ekstremal yoki strategik hodisaga e’tiborni qaratib, tabiiy eksperimentlarni o‘rganadi.

-Keys-stadi yoki situatsion o‘qitish mas’ul menejerlar faoliyati natijasida vujudga kelgan real ish jarayonini tavsiflashga aytiladi. Bu usul aniq hodisalarni tahlil qilish va ishlab chiqarish hodisalarini qismlarga ajratib o‘rganishga yaqin. Uning o‘ziga xos talablariga vazifaning to‘liq shakllantirilmaganligi, noaniqlik, konflikt va risklarning mavjudligi kiradi.

-Keys usuli (Case method, situatsion tahlil usuli) real iqtisodiy, ijtimoiy va biznes vaziyatlar tavsifini qo‘llaydigan o‘qitish texnikasidir. O‘qituvchilar vaziyatni tahlil qilishlari, muammoning asl mohiyatini tushunishi, mumkin bo‘lgan yechimlarni taklif etish va ulardan eng yaxshisini tanlashi kerak.

-Keys-stadi real haqiqatda mavjud va real muammolarga asoslangan situativ o‘qitish metodikasi bo‘lib, ta’lim olayotgan shaxsdan taklif etilgan hodisani yechishda maqsadga muvofiqligiga e’tibor berishini talab etadi.

Bundan tashqari, Monografik Keys-stadi (vaziyatni tahlil qilish) turi ham mavjud bo‘lib, u bir yoki bir necha hodisalar obyekti bo‘lgan ilmiy tadqiqot turi hisoblanadi. U jamiyatda kechadigan tarixiy jarayonlarni batafsil tavsiflash, o‘rganish va interpretatsiyalashga yo‘naltirilgan [14].

Keys-stadi metodining rivojlanish tarixi bo‘yicha tanishib chiqqan adabiyotlarimizda tadqiqotchlarning masalaga turlicha yondashuvlarning guvohi bo‘ldik. Shu sababdan ko‘rib chiqqan manbalarimizga asoslanib, metodning rivojlanish tarixini mustaqil davrlashtirishga harakat qildik.

Adabiyotlar tahlilidan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Keys-stadi metodining rivojlanishi asosan huquqshunoslik va biznes ta’limi bilan bog‘liq, biroq unung paydo bo‘lishida sotsiologik va psixologik tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. “Keys-stadi” metodining tarixi murakkab bo‘lib, u dastlab tadqiqot usuli sifatida shakllangan, keyin esa ta’lim metodikasiga aylangan. Uning kelib chiqishi va taraqqiy etishida quyidagi asosiy bosqichlar yaqqol farqlandi:

1-bosqich. 1870-yillargacha. Tadqiqot metodi sifatida: Yevropadagi sotsiologik va psixologik tadqiqotlar.

Case Study dastlab ijtimoiy va tibbiy fanlarda shaxs, guruh yoki hodisani chuqur o‘rganish vositasi sifatida paydo bo‘lgan. Eng birinchi qo‘llanishlar shifokorlar tomonidan klinik vaziyatlarni va bemorlarning kasallik tarixini (case history) o‘rganishda bo‘lgan. Bu har bir holatning o‘ziga xosligini tushunishga xizmat qilgan.

Fransuz muhandisi va sotsiologi Pierre Guillaume Frédéric Le Play (1806–1882) Case Study metodining kashshofi hisoblanadi. U 1855-yilda nashr etilgan “Les Ouvriers européens” (Yevropalik Ishchilar) asarida Yevropa bo‘ylab ishchi oilalarining turmush tarzini, budjetini va axloqiy holatini chuqur va tizimli monografiyalar (keyslar) orqali tahlil qilgan. Bu sotsiologiyada Keys-stadi usulining ilk va tizimli qo‘llanishi edi [15].

Avstriyalik psixolog, psixoanalitik, psixiatr va nevrolog Zigmund Freyd XIX asr oxirida o‘zining psixoanaliz nazariyalarini shakllantirishda bemor Anna O. (avstriyalik yahudiy feminist, ijtimoiy kashshof va yahudiy ayollar uyushmasi (Jüdischer Frauenbund) asoschisi Berta Pappenxaym (1859-1936-yil) ning taxallusi [79]) ning hayotiy keyslaridan keng foydalangan. Bu orqali u individual psixologik hodisalarni chuqur tahlil qilgan [16].

2-bosqich. 1870-yillar. Ta’lim texnologiyasi (metodikasi) sifatida (Yuridik keys metodining paydo bo‘lishi): Garvard Huquq maktabi (AQSh) tajribasi.

Case Studyning zamonaviy ta’lim texnologiyasi sifatidagi tarixi AQSH universitetlari bilan chambarchas bog‘liq. Case Study ta’limda ilk bor 1870 yillarda Garvard Universiteti Huquq Maktabida (Harvard Law School) qo‘llanilgan. Bu usul huquq sohasida birinchi bo‘lib Kristofer Langdell tomonidan huquqiy qarorlarni tahlil qilish uchun joriy etilgan. Buxoro davlat universiteti saytida yoritilgan “Innovatsion pedagogik texnologiyalar” o‘quv qo‘llanmasida (muallifi va nashr yili noma’lum) qayd etilishicha, bu usulning asosiy maqsadi talabalarni qonunlarni yod olishdan ko‘ra, sud amaliyotini tahlil qilish orqali tanqidiy huquqiy fikrlashga o‘rgatish bo‘lgan. Shuning uchun ham usul ko‘pincha “Garvard metodi” deb ham ataladi [23]. Garvard Universiteti Huquq Maktabi o‘qituvchilari talabalarga qonun nazariyasini emas, balki real sud qarorlari (yuridik keyslar) to‘plamini tahlil qilib, ularni muhokama qilishni topshirishgan. Bu talabalarni amaliy huquqiy fikrlashga o‘rgatgan [27].

3-bosqich. 1920-yillar. Biznes metodi sifatida keng qo‘llanilishi: Garvard Biznes maktabi (AQSh) tajribasi.

1920-yillarda Garvard Biznes Maktabi (Harvard Business School - HBS) dekani Wallace Donham boshchiligida huquq maktabining bu tajribasi iqtisodiy ta’limga tatbiq etildi.

Garvard Biznes Maktabi professorlari o‘sha davr biznes amaliyotlaridagi aniq muammoli vaziyatlarni yozma keyslar shaklida tayyorlab, talabalarga berishni boshlagan. 1920-1947-yillar oralig‘ida Garvard Biznes Maktabi 18 900 ga yaqin keys yaratgan [22]. Maqsad talabalarga “tayyor javob”ni berish emas, balki ularni direktor, menejer yoki boshqaruvchi sifatida cheklangan ma’lumotlar asosida mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish edi [22].

Keys-stadi biznes sohasida muammolarning mohiyatini tushunish, muqobil yechimlar taklif qilish va eng yaxshisini tanlash, ya’ni boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan asosiy vositaga aylandi. Renessans ta’lim universiteti manbasida bu metod dastlab 1921-yilda qo‘llanilgani ham qayd etilgan [28]. Shu tariqa, Keys-stadi usuli butun dunyo bo‘ylab biznes maktablarining asosiy o‘qitish metodikasiga aylandi.

Professorlar J.A.Erskine, M.R.Leenders va L.A.Mauffette-Leenderslar tomonidan yozilgan “Teaching with Cases: A Practical Guide” [9] asarida bu metodning biznes ta’limidagi o‘rni keng yoritilgan. Biznes maktablarida real kompaniyalar faoliyatidagi murakkab boshqaruv vaziyatlarini tahlil qilish orqali bo‘lajak rahbarlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllantirilgan.

4-bosqich. XX asrning o‘rtalari. Global kengayish: Yevropa (Masalan, Manchester Biznes maktabi) va Osiyo.

Keys-stadi Garvarddan tashqari, Manchester Biznes maktabi (Yevropa) kabi boshqa markazlarga tarqaldi. Garvard maktabida keyslar ko‘pincha yagona to‘g‘ri yoki optimal yechimni izlashga qaratilgan bo‘lsa, Manchester maktabida asosan muqobil yechimlarni topish va tahlil qilishga ko‘proq urg‘u berilgan [23]. Natijada, Keys-stadi metodi iqtisodiyotdan tashqari, siyosatshunoslik, pedagogika va tibbiyot kabi gumanitar fanlarga ham kirib bordi.

5-bosqich. XX asrning oxiri - hozirgi kun. Zamonaviy ta'lim, Raqamli muhit bosqichi: Texnologik Integratsiya va Kompetensiya.

XX asrning ikkinchi yarmida Case Study nafaqat ta’lim, balki tadqiqot sohasida ham yangi turlari bilan rivojlandi. Zamonaviy keyslar faqat matnli hujjatlar emas, balki, ular audio, video materiallar, multimediya va onlayn platformalar yordamida interaktiv shaklda taqdim etilmoqda (“KEYS STADI” Texnologiyasi, Scribd manbasi va shunga o‘xshash).

Metodist Robert K.Yin o‘z tadqiqotlarida Case Study tadqiqotlarini uch turga ajratadi [18]:

1. Tavsifiy (descriptive): Hodisani batafsil bayon etish.
2. Qidiruvchi (exploratory): Yangi g‘oyalar va savollar topish.
3. Tushuntiruvchi (explanatory): Hodisa “qanday” yoki “nima uchun” sodir bo‘lganini izohlash.

Mazkur bosqichda Bugungi kunda Keys-stadi texnologiyasi ta’limning barcha sohalarida, shu jumladan, geografiya, tibbiyot, pedagogika va siyosatshunoslikda ham qo‘llanilmoqda. U talabalarni nazariy bilimlarni real kontekstda qo‘llashga o‘rgatuvchi eng samarali metodlardan biri sifatida tan olingan.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda, ayniqsa oliy ta’lim tizimida, Keys-stadi metodini joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu, asosan, kadrlar tayyorlash sifatini zamonaviy talablarga moslashtirish va talabalarda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Keys-stadi metodi mamlakat ta’lim tizimiga quyidagi asosiy maqsadlarda joriy etilmoqda:

-kompetensiyaviy yondashuv. Talabalarda bilimlarni oddiy eslab qolishdan ko‘ra, ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalari (kompetensiyalari)ni shakllantirish;

-mustaqil fikrlash. Muammolarni mustaqil tahlil qilish, ijodiy yechimlar taklif qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

-amaliyotga yaqinlashtirish. Oliy ta’limni ishlab chiqarish va ijtimoiy sohadagi real vaziyatlarga (biznes, boshqaruv, pedagogika, tibbiyot, texnologiya va boshqalar) imkon qadar yaqinlashtirish.

Keys-stadi metodi O‘zbekistonda, asosan, oliy ta’lim tizimining barcha sohalarida interfaol o‘qitish texnologiyasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Bu metodning asosiy maqsadi - nazariy bilimlarni real amaliy muammolar orqali mustahkamlash va talabalarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish hamda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Quyida Keys-stadi metodining O‘zbekistonda eng faol qo‘llaniladigan sohalari batafsil ko‘rib chiqiladi:

1. Pedagogika va ta’lim sohasi. Keys-stadi O‘zbekistonda eng avvalo va eng faol qo‘llaniladigan soha bu pedagogik ta’limdir. Metodning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarni dars jarayonida, sinf boshqaruvida yoki tarbiyaviy ishlarda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishga o‘rgatishdan iborat.

Pedagogika va ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarda turli didaktik vaziyatlar, sinfdagi muammoli holatlar yoki ota-onalar bilan ishlash bo‘yicha amaliy yechimlarni topish malakasini oshirishda qo‘llaniladi. Pedagogik keyslarda real maktab yoki kollej sharoitida yuz bergan tortishuvlar, o‘quvchilar o‘rtasidagi mojarolar, o‘qituvchilarning axloqiy dilemmalari yoki o‘quv dasturini tatbiq etishdagi qiyinchiliklar kabi vaziyatlar beriladi. Natijada talabalar (bo‘lajak pedagoglar) guruhlarda vaziyatni tahlil qilib, eng maqbul pedagogik yechim va yondashuvlarni topishga harakat qilishadi. Bu ularning kasbiy kompetensiyasini va tezkor fikrlash qobiliyatini oshiradi.

2. Iqtisodiyot, Menejment va Biznes sohasida. Iqtisodiy ta’limda Keys-stadi metodining qo‘llanilishi xalqaro tajribaga (masalan, Garvard Biznes Maktabi) eng yaqin hisoblanadi. Sohada Keys-stadi metodining qo‘llanishidan asosiy maqsad talabalarni bozor sharoitlarida, korxona boshqaruvida, marketing yoki moliyada yuzaga keladigan murakkab amaliy vaziyatlarga tayyorlashdan iborat. Bunda iqtisodiyot va boshqaruvda eng avvalo Garvard tajribasiga asoslangan holda, menejment, biznes va iqtisodiyot fanlarini o‘qitishga, qaror qabul qilish jarayonlarini simulyatsiya qilishga alohida e’tibor qaratiladi.

“Biznes keyslari”da O‘zbekistondagi yoki xalqaro kompaniyalar (masalan, kichik yoki o‘rta biznes subyektlari) faoliyatidagi real muammolar - yangi mahsulotni bozorga kiritish, raqobatga bardosh berish, moliyaviy inqirozni bartaraf etish yoki xodimlarni boshqarishdagi strategik xatolar kabi masalalar tahlil qilinadi. Natijada talabalar aniq iqtisodiy ma’lumotlar (statistikalar, moliyaviy hisobotlar) asosida tahlil o‘tkazib, turli yechim variantlarini ishlab chiqish va ularni himoya qilishni o‘rganadilar.

3. Huquqshunoslik (Yuridik ta’lim) sohasida. Huquq fanlarini o‘qitishda Keys-stadi (“vaziyat usuli”) katta ahamiyatga ega. Uning asosiy maqsadi bo‘lajak huquqshunoslarda qonun normalarini real sud amaliyotiga yoki huquqiy tortishuvlarga tatbiq etish ko‘nikmasini rivojlantirishdan iborat.

“Huquqiy keyslar”da jinoyat, fuqarolik yoki ma’muriy huquq sohasidagi real yoki xayoliy sud ishi vaziyatlari beriladi. Unda dalillar, qonun moddalari va ishtirokchilarning pozitsiyalari aks etadi. Natijada talabalar guruhlarga bo‘linib, ayblovchi, himoyachi yoki hakam rolini o‘ynab, vaziyatni amaldagi qonunlar asosida tahlil qiladi, huquqiy asoslangan xulosa chiqaradi va o‘z qarorini argumentlar bilan isbotlaydilar.

4. Tibbiyot va farmatsevtika sohasida. Keys-stadi tibbiyot ta’limida klinik vaziyatlar tahlili shaklida qo‘llaniladi. Uning maqsadi talabalarni real bemorlar misolida kasallikning diagnostikasi, differensial diagnostika va davolash strategiyasini ishlab chiqishga o‘rgatishdan iborat.

Talabalarga bemorning anamnezi, tahlil natijalari va shikoyatlari aks ettirilgan keyslar beriladi. Talabalar kasallikni aniqlashi va davolash kursini belgilashi kerak bo‘ladi. Natijada bu usul talabalarda klinik fikrlashni, javobgarlik hissini va jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Shuningdek, Keys stadi metodini texnik fanlarda texnik ta’minot, diagnostika va loyihalashga oid muammoli vaziyatlarni hal qilishda qo‘llash tajribalari mavjud. Umuman olganda, Keys-stadi O‘zbekistonda ta’limning nazariyadan amaliyotga o‘tishiga xizmat qiluvchi asosiy usullardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ga 391-sonli qarorida [4] ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan, Keys-stadi kabi amaliyotga yo‘naltirilgan metodlarni faol qo‘llash zaruriyati ta’kidlangan.

O‘zbekistonlik olimlar va pedagoglar tomonidan Keys-stadi metodining turli sohalarda qo‘llanilishiga oid olib borilayotgan tadqiqotlari natijasida ko‘plab darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar nashr etilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda Keys-stadi metodining oliy ta’lim tizimiga keng joriy etilishi shunchaki o‘qitish usulini o‘zgartirishdan iborat emas. Bu, mamlakatning kadrlar tayyorlash siyosatida sifat, amaliyot va raqobatbardoshlikka yo‘naltirilgan strategik o‘zgarish hisoblanadi. Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasi Qarorlari bilan mustahkamlangan bu yondashuv, nazariy bilimlarni real hayot muammolarini yechishga qodir bo‘lgan kompetensiyalarga aylantirishni maqsad qilgan. Kelgusida, ushbu metodologiyaning samarali qo‘llanilishi O‘zbekiston oliy ta’lim bitiruvchilarining xalqaro mehnat bozorida munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni (Yangi tahriri). – T., 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli qarori.

5. Abdimurotov, O. U. (2021). “Yevrosiyo materigi”ni o‘qitishda “Keys Stadi” metodidan foydalanish usullari. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 377-382.

6. Axmedova L.A. (2020). Keys-stadi metodining ta’lim jarayonidagi ahamiyati. Xalq ta’limi jurnali, №3.

7. Barrows, H. S. (1996). Problem-based learning in medicine and beyond: A brief overview. New Directions for Teaching and Learning, (68), 3-14.

8. Creswell, J. W. (2013). Qualitative inquiry and research design: Choosing among five approaches. SAGE Publications.

9. Erskine, J. A., Leenders, M. R., & Mauffette-Leenders, L. A. (1997). Teaching with Cases: A Practical Guide. – London, Ontario: Ivey Publishing.

10. Gary Thomas A typology for the case study in social science following a review of definition, discourse and structure. // Qualitative Inquiry. 2011, 17 (6): 511–521 pp.

11. Hovsepyan, A. A. (2018). Keys-stadi metodining geografiya ta’limidagi samaradorligi. Xalq ta’limi jurnali, №3.

12. Kaddouro, M. A. (2011). Critical thinking skills of nursing students in lecture-based teaching and case-based learning. International Journal of cholarship of Teaching and Learning, 5(2), 20.

13. Miles, M. B., & Huberman, A. M. Qualitative data analysis: An expanded source book (2nd ed.). / Thousand Oaks, CA: Sage, 1994. – 338 p.

14. Niyazov L.N. Amonova H.I., Gulamova M.T. Keys texnologiyalarining tabiiy fanlarni o‘qitishdagi o‘rni / Monografiya. – Buxoro, 2020. – 126 b.

15. Pierre Guillaume Frédéric Le Play (1855). "Les Ouvriers européens".

16. Psychology Town. (n.d.). Evolution of the Case Study Method: From Historical Perspectives to Modern Research.

17. Sharan, Y., & Sharan, S. (1992). Group Investigation: Cooperative Learning in the Classroom. – New York: Teachers College Press.

18. Yin, R.K. (2018). Case Study Research: Design and Methods. – Thousand Oaks, CA: Sage Publications.

19. Yusof, K. M., et al. (2012). Cooperative problem-based learning (CPBL): A strategy to foster students’ knowledge, problem-solving skills and teamwork abilities. Higher Education, Skills and Work-Based Learning, 2(1).

20. Center for Innovation in Teaching & Learning. The Case Method: Characteristics and the Role of the Instructor. University of Illinois Urbana-Champaign (UIUC).

21. Columbia CTL. Case Method Teaching and Learning: Application in Law, Business and Medicine. Center for Teaching and Learning, Columbia University.

22. HBS Online. (n.d.). 5 Benefits of Learning Through the Case Study Method: Decision-Making and New Perspectives.

23. Hukumat portali va geografiya ta’limiga oid ilmiy maqolalar bazalari (www.Lex.uz, www.ziyonet.uz, www.cyberleninka.ru, www.WIKIPEDIA, https://buxdu.uz/, https://renessans-edu.uz, www.tadqiqotlar.uz).

24. Islomova G.M. (n.d.). Keys-stadi (Case Study) metodida amaliy baholash imkoniyatlari.

25. Jalilov A.A., Rustamov A.N. “mustaqil ta’limda keys-stadidan foydalanish...”, Universal Publishings.

26. https://lib.bimm.uz. Mamatqulov D., Tolibov G‘. “akdemigi... –BIMM.uz”.

27. Soff.uz. Keys-stadi texnologiyasi mohiyati va ta’limdagi tatbiqi.

28. Zenodo. Boymatov B.E. (2023). "Jahon siyosiy kartasi" mavzusini o‘qitishda keys-stadi texnologiyasidan foydalanish metodikasi.